

# **TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR QADRSIZLANISHI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH**

*U.A.Shirinov – SamISI, dotsent  
F.Turayeva – SamISI, magistrant*

*Annotatsiya: Maqolada buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida tovar-moddiy zaxiralar qadrsizlanishi hisobi va auditini takomillashtirish bo'yicha mulohazalar yuritilgan.*

*Kalit so'zlar: Tovar moddiy zaxiralar, audit, aktivlar qadrsizlanishi, xalqaro standart.*

*Аннотация: В статье содержатся комментарии по совершенствованию учета и аудита амортизации запасов на основе международных стандартов бухгалтерского учета.*

*Ключевые слова: Инвентаризация, аудит, обесценение активов, международный стандарт.*

*Abstract: The article contains comments on improving the accounting and auditing of inventory depreciation based on international accounting standards.*

*Key words: Inventory, audit, impairment of assets, international standard.*

Mamlakatimizda olib borilayotgan iktisodiy islohotlarning asosiy negizi aholi turmushi farovonligini yaxshilashga qaratilmoqda. Jahon tajribasi, shuni yaqqol ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohalarda keng miqyosdagi o'zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning muxim sharti - mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, fuqarolar tinchligini ta'minlashdan iboratdir. Bu esa, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida makroiqtisodiy barqarorlikni oshirishni taqozo etmokda.

Xar bir xo'jalik yurituvchi subyekt maxsulot ishlab chiqarish uchun malum bir turdag'i tovar-moddiy zaxiralardan foydalanadi va bu tovar-moddiy zaxirani to'g'ri hisobga olish, maxsulot tannarxini to'g'ri hisob kitob qilish muhim bir amaliyotlardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida tovar-moddiy zaxiralarini auditdan o'tkazishda ham jiddiy yondashishni taqazo etadi.

Korxonaning tovar-moddiy zaxiralarining qadrsizlanishini tekshirish tashkilotning moliyaviy hisobotidagi muhim bosqich va ma'lum bir metodologiyaga bo'y sunadigan jarayondir. Quyida tovar-moddiy zaxiralarning qadrsizlanishini tekshirishning asosiy uslubiy jihatlari keltirilgan:

1. Devalvasiya texnikasining ta'rifi: FIFO (birinchi qabul qilingan - birinchi chiqarilgan), LIFO (oxirgi qabul qilingan - birinchi chiqarilgan), o'rtacha tortilgan qiymat va boshqalar kabi tovar-moddiy zaxiralarning bir nechta devalvasiya usullari mavjud. Devalvatsiyani tekshirishda tashkilot qaysi metodologiyadan foydalanayotganini aniqlash va uni to'g'ri qo'llash kerak.

2. Bozor qiymatini baholash: tovar-moddiy zaxiralarning qadrsizlanishini tekshirish uchun ularning joriy bozor qiymatini baholash kerak. Bunga bozorda shunga o'xhash tovarlarning sotish narxlarini baholash yoki mutaxassislar tomonidan ekspertiza o'tkazish kiradi.

3. Qiymat yo'qotishlarini hisobga olish: tovar-moddiy zaxiralarning qadrsizlanishini tekshirishda ularning qiymatini yo'qotishni ham hisobga olish va baholashda hisobga olish kerak. Masalan, eskirgan yoki muddati o'tgan tovarlar qadrsizlanishi mumkin.

4. Huquqiy normalar va standartlarga rioya qilish: tovar-moddiy zaxiralarning qadrsizlanishini tekshirishda barcha mavjud huquqiy normalar va xalqaro buxgalteriya standartlariga rioya qilish kerak.

5. Natijalarni hujjatlashtirish: tovar-moddiy zaxiralarning qadrsizlanishini tekshirishning barcha bosqichlari shaffoflikni ta'minlash va auditorlar va nazorat organlari tomonidan ularning to'g'rilingini tekshirish imkoniyatini ta'minlash uchun hujjatlashtirilishi kerak.

Tovar-moddiy zahiralarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning metodologik asoslari haqida mamlakatimiz olimlari K.B.Urazov, M.M.Tulaxadjayeva, H.N.Musayev, S.N.Tashnazarov, U.A.Shirinov va boshqalar izlanish olib borishgan.

Shunday qilib, korxonaning tovar-moddiy zaxiralarining qadrsizlanishini tekshirish tashkilotning moliyaviy holati to'g'risida ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish uchun aniq metodologiya va baholashni talab qiladi.

Tovar-moddiy zahiralarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning **maqsadi**-ularning saqlanishi, tejamli va oqilona ishlatalishi, hisobga olishning to'g'ri tashkil etilishini aniqlashdan iborat. Shuningdek hisobot ko'rsatkichlarining ishonchlilagini va tovar-moddiy zahiralar bilan bog'liq muomalalar hisobi va soliqqa tortish uslubining O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan qonunchilik hamda me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga muomalalar mohiyatini, hamda nazorat tuzilmasi va buxgalteriya hisobi tizimini tekshiruvdan o'tkazish va tavakkalchilik (risk)larni baholash orqali erishiladi. Zahiralarni tekshirish, ular hajmi katta bo'lgan sub'ektlarda auditning asosiy qismi deb qaraladi. Bevosita tovar-moddiy zahiralarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish ular qadrsizlanishini ham auditdan o'tkazishni taqazo etadi, shuning uchun ham tovar-moddiy zahiralarini auditdan o'tkazish maqsadi hamda tovar-moddiy zahiralar qadrsizlanishi auditining maqsadi bir xildir.

Tovar-moddiy zahiralar bo'yicha hisobot ko'rsatkichlarining haqqoniyligini tekshirishda boshqa audit ob'ektlaridagi kabi, dastavval, balansning «Ishlab chiqarish zahiralari» (150-satr), «Tugallanmagan ishlab chiqarish (160-satr)», «Tayyor mahsulot» (170-satr), «Tovarlar» (180-satr) moddalari, Bosh daftar, jurnal-orderlar va boshqa hisob registrlari orasidagi tenglikni aniqlash zarur (8-jadval).

Shu bilan birga, sintetik va analitik hisob ma'lumotlarining muvofiqligiga ishonch hosil qilish muhimdir. Moddiy qiymatliklarni ishlab chiqarish xarajatlariga olib borish va ularning baholarini tekshirish, ishlab chiqarishga sarflash me'yorlari va boshqalarni tekshirish zarur. Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga da'vo qo'zg'atishning o'z vaqtidaligi va to'g'riliqi hamda yo'ldagi (sub'ektga etib kelmagan) materiallar qoldig'inining haqqoniyligini ham tekshirish kerak.

Yo'ldagi moddiy qiymatliklarni tekshirishning vazifalari: yo'ldagi moddiy qiymatliklar sifatida hisobda turgan har bir jo'natishning asosliligini aniqlash, yuklarni etkazib berishi muddatlarining o'tib ketmaganligini aniqlash, xo'jalik tomonidan yuklarni qidiruv choralarining ko'rilibishini aniqlash, bosh buxgalter va ta'minot xodimlari tomonidan yo'ldagi moddiy qiymatliklarni hisobga olish ustidan nazorat o'rnatilishi kabilarini aniqlashdan iborat. Bulardan tashqari hisob ma'lumotlarining haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga mos kelishi va tovar mahsulotlar ishlab chiqarish to'g'isidagi hisobotlarda qo'shib yozish faktlari aniqlanadi.

Tovar-moddiy zahiralar bilan bog'liq xo'jalik muomalalarini auditorlik tekshiruvidan quyidagi ketma-ketlikda o'tkazish maqsadga muvofiq:

-mazkur tekshiruv uchastkasining yo'nalishlari bo'yicha hisob siyosatining qoidalarini o'rganish;

-tovar-moddiy zahiralarga doir ichki nazorat tizimining ishonchlilik darajasini baholash. Buning uchun ombor xo'jaligi va omchorxonalarning holatini tekshirib chiqish;

-moddiy javobgar shaxslar tomonidan tovar hisobotlarini tuzish va belgilangan muddatlarda buxgalteriyaga topshirilishini o'rganish;

-tovar-moddiy qiymatliklarning hisobot sanasiga tarkibini tahlil qilish;

-tanlab inventarizatsiya qilinadigan ob'ektlarni aniqlash;

-tovar-moddiy zahiralar harakatini tahlil qilish;

-tovar-moddiy zahiralarni baholashning to'g'rilagini tekshirish;

-tovar-moddiy zahiralar sintetik va analitik hisobining tashkil etilishi hamda holatini tekshirish.

Tovar-moddiy zahiralarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish buxgalteriya hisobotida katta xatoliklarga yo'l qo'yish xavfini kamaytiradi. Shuning uchun, tovar moddiy zahiralarni tekshirishni boshlashdan oldin, auditor eng ko'p uchraydigan qoidabuzarliklarni aniqlashi va shuni hisobga olgan holda zarur tekshiruv amallarini tanlashi kerak. Tekshiruv jarayonida auditor qo'yidagilarni aniqlashi lozim:

-zahiralarning haqiqatda mavjudligi;

-zahiralar bilan bog'liq barcha muomalalarning buxgalteriya hisobi schyotlarida to'liq va to'g'ri aks ettirilganligi;

-barcha zahiralar sub'ekt mulki ekanligi, ya'ni ularga mulkiy huquq mavjudligi, qarz sifatida aks ettirilgan summalar esa majburiyat ekanligi;

-zahiralarni va ular bilan bog'liq majburiyatlarni baholashning to'g'rili;

-tovar-moddiy zahiralarni hisobga olish tamoyillari to'g'ri tanlanganligi va ko'llanilishining to'g'rili.

Biz korxonalarda ro'y bergan qadrsizlanish summasiga quyidagicha buxgalteriya o'tkazmasini berishni tavsiya qildik.

**Dt 9440** TMZlar bo'yicha qadrsizlanishdan ko'rilgan zararlar

**Kt 1010** Ombordagi zaxiralar

Korxona ishchi schotlar rejasida 9440 “TMZlar bo'yicha qadrsizlanishdan ko'rilgan zararlar” schoti ochishi bo'yicha takliflarimizni berdik, bu korxonada TMZlar qadrsizlanishi bo'yicha aniq malumotlar olish imkoniyatini yaratadi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori. 2020 yil 24 fevral. PQ-4611.
2. 36-sonli BHXS "Aktivlar qadrsizlanishi"
3. М.Б.Ухажова/ Справедливая стоимость и ее использование в бухгалтерском учете: состояние и перспективы/автореферат,
4. Ширинов, У. А. (2022). Почта хизматларининг ҳисоб ва аудит обьекти сифатидаги таснифий асослари. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 804-809.
5. Ширинов, У. А. (2022). Алоқа хизматларини кўрсатувчи субъектларда аудитнинг долзарб масалалари. *Архив научных исследований*, 2(1).
6. Дўсмуратов Р.Д. Аудит асослари. Дарслик.-Т.:ЎМЭ, 2003.612 б
7. Ширинов, У. А. (2022). Мобил алоқа хизматларидан олинадиган даромадлар ҳисобини такомиллаштириш. *экономика и социум*, (6-2 (97)), 800-803.
8. Уразов К.Б. Бошқа тармоқларда бухгалтерия ҳисобининг ҳусусиятлари. Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган 2-нашр.- Т.: «Фан ва технология», 2019. – 540 б.
9. Тащназаров С.Н. Молиявий бухгалтерия ҳисоби ва ҳисботи: халқаро ва миллий жиҳатлар. Монография. - Т.: Иқтисод-молия, 2009. - 168 б.;